MAHALLALARDAGI TO‘LIQSIZ OILALARDAGI NOJO‘YA QILMISHLARNING FARZANDLARI TA’LIM-TARBIYASIGA TA’SIRI

Musurmanova Shaxlo Ilhomovna
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti v.b.
E-mail: shaxlomusirmonova@gmail.com

Annotatsiya: To‘liq bo‘lmagan oilalar sonining ko‘payishi va ularda ota-onasiz farzandlarning ulg‘ayishi nafaqat O‘zbekistonda, balki barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda namoyon bo‘layotgan katta ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy, ijtimoiy-psixologik va pedagogik muammodir. Shu bilan birga, yolg‘iz oila a’zolarining aksariyati o‘z vazifalari va majburiyatlarini talab darajasida bajara olmasligi dolzarb muammolardan biriga aylandi. Agar bu muammolar o‘z o‘rnida hal etilmasa, ular mamlakatni ma’naviy inqirozga olib borishi tabiiy. Ushbu maqolada mahallalardagi to‘liqsiz oilalardagi nojo‘ya qilmishlarning farzandlari ta’lim-tarbiyasiga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mahalla, jamiyat, to‘liq bo‘lmagan oila, qadriyatlar, ota-ona, bola, oila, ajrashgan oila, tadbirkorlik, aqlli ayol, murakkab, funktsional, turmush o‘rtog‘i, nikoh.

Abstract: The increase in the number of single-parent families and the growing up of children without parents in them is a big socio-economic, spiritual, socio-psychological and pedagogical problem that is manifested not only in Uzbekistan, but also in all developed and developing countries. . At the same time, the inability of most single family members to fulfill their duties and responsibilities at the required level has become one of the urgent problems. If these problems are not solved in their place, it is natural that they will lead the country to a moral crisis. This article describes the impact of misbehavior on children's education in single-parent families in neighborhoods.

Key words: neighborhood, community, incomplete family, values, parents, child, family, divorced family, entrepreneurship, intelligent woman, complex, functional, spouse, marriage.

Mamlakatimizda jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan oila, onalik, otalik va bolalikni muhofaza qilish, noto‘liq oilalar hamda ushbu oilalardagi muammosi mavjud farzandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, oilaviy qadriyatlar vositasida otaonalaar va farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro oilaviy totuvlik, hamjihatlikni qaror toptirish, yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi, ta’lim olishi, sog‘lig‘ini saqlashi, kasbga tayyorlash, bandligini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu masalalarga oid huquqiy asoslar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022 yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019 yil 2 apreldagi “Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeini tubdan oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5700-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotinqizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Oila, bolalar va yoshlar”ga bag‘ishlangan XIV bobining 76-80-moddalarida to‘liq o‘z aksini topgan.

Bunday holatlarda mahalla tizimi mutasaddilarining vazifasi to‘liqsiz oilada ota-ona e’tiborini o‘zlarining farzandlarini tarbiyalash ishlariga qaratishlari lozim ekanligini uqtirishdan iborat. Bolalarning nojo‘ya qilmishlariga yuzaki qaragan ota-ona katta xatolikka yo‘l qo‘yadi. Ota-onalar, mahalla mutasaddilari buning sabablarini qidirganlarida bolalarda ikki xil holatda **nojo‘ya qilmishlar** qilishini aniqlab oladilar.

Bulardan biri bolalarning tasodifiy nojo‘ya qilmishlari, onda-sonda sodir bo‘ladigan, biron narsaning ta’sirida, birdaniga jahllari kelganda, tutaqib ketganlarida, biron narsaga qiziqib, berilib ketganlarida ro‘y beradigan nojo‘ya qilmishlaridir. Boshqa xil nojo‘ya qilmishlari esa ko‘p

takrorlanadigan, rejali, maqsadli, bolaning fel-atvoridagi barcha yomon hislatlarni namoyon qilib ko‘rsatadigan nojo‘ya qilmishlaridir.

Birinchi tur nojo‘ya qilmishlarga javoban ba’zi hollarda bolalarga ehtiyotsizlikning, o‘zini tuta bilmaslikning yoki o‘ylamay ish qilishning oqibati nima bo‘lishini mantiqiy suratda ko‘rsatib beradigan jazo berilishi mumkin. Lekin shuni esda tutish kerakki, jazo qancha ko‘payib va shiddatliroq bo‘lib borsa, bolalarga uning ta’siri shuncha kamayib boradi.

Ota-ona, avvalo, bolaning o‘zi o‘z qilmishiga qanday qaraganligini bilib olishi kerak. Ba’zan bolalarning o‘zi qilganiga pushaymon bo‘lishi, tavba qilishi va hatto o‘zidan-o‘zi juda qattiq xafa bo‘lishi kifoya qiladi va kattalar tomonidan jazo berishga ehtiyoj ham qolmaydi.

Ota-ona birinchi navbatda bolaning o‘zi kurashib enga olmaydigan zararli narsalarni, bola aldanib qoladigan, uning uchun buzuq namuna bo‘ladigan narsalarni yo‘qotish to‘g‘risida, ikkinchi tomondan esa, bolaning hayotini uning qonuniy orzulari tabiiy ravishda ro‘yobga chiqadigan qilib turish to‘g‘risida bosh qotirishlari kerak.

Masalan, kattalarning ko‘pi ba’zan bolalarning tilak va ehtiyojlari, orzu-havaslariga e’tibor bermaydi-da, shuning natijasida bolalarda nojo‘ya qilmishlar sodir bo‘ladi. Bolalarga uyni iflos qilishni, latta, qog‘oz kesishni, biron narsa qurish, yopishtirish, chopish, yugurishni, ba’zida hatto kulib-qiyqirib, shovqinlashni man etib, bu bilan bolalarning gapga quloq solmasliklariga va nojo‘ya qilmishlar qilishlariga sababchi bo‘ladilar. Ular ota-onalari uyda bo‘lmaganlarida bundan foydalanib hamma uylarga kirib, chopib, yugurishib yuradilar, stol, stul va boshqa narsalar ustiga chiqib olib, undan sakraydilar, ro‘zg‘or-asboblari va jihozlariga ziyon keltiradilar.

Bolalarni burchakka tikka turg‘azib qo‘yish, o‘yin-kulgi va ko‘ngil ochishdan mahrum etish yoki boshqa biron jazo berish bilan ularning yurish-turishlarini o‘zgartirib bo‘lmasa kerak. Bolalarning bu xil nojo‘ya qilmishlarga majbur etadigan ehtiyoj - sho‘xlik ularga xos, ular uchun tabiiy bo‘lganligidan burchak ham, boshqa biron jazo ham ta’sir etmaydi, albatta. Jazo berishdan ko‘ra bolalar o‘yinidan tushadigan narsalar uchun maxsus savat tutish, uyda bolaning mashg‘uloti uchun unga bir burchak ajratib berish, ba’zida bolalarga kattalar oldida, ota-onalari oldida sakrab o‘ynashga ijozat berish va shu bilan bolalarning kattalar oldida qilishi mumkin bo‘lmagan ishni ular yo‘qligida qilish istagini yo‘qotish yaxshiroq bo‘lmaydimi? Bolalarning sho‘xligini, o‘ynab-sakrashini ma’lum darajada bir rejaga solishga harakat qilib ko‘rish yaxshiroq emasmi? Xususan, o‘g‘il bolalarda kuch juda ko‘p bo‘lib, ular sarf etishga joy topa olmay qoladi. Shuning uchun ularga ko‘p kuch sarf etishni talab qiladigan o‘yinlar taklif etilsa, ularning kuchi foydali va o‘rinli sarf bo‘ladi.

Ikkinchi xil nojo‘ya qilmishlari boshqacha ta’sir choralari ko‘rishni talab qiladi. Chunki bu xil nojo‘ya qilmishlar o‘ylanib, ongli ravishda, bilib turib qilinadi. Bolalar bu xil nojo‘ya qilmishni qilganlarida ota-onalar bolalarining qiziqishi, vaqtincha biron ta’sirga berilishi emas, balki bolaning ma’naviy qiyofasi uchun tashvishlanishlari kerak, chunki bu tarbiya ishida jiddiy e’tiborni talab qiladigan muhim nuqtadir.

Darhaqiqat, ikkinchi xil nojo‘ya qilmishlarning juda ko‘pchiligi, yuqorida aytganimizday, oiladagi noto‘g‘ri munosabatlar va bolaning noto‘g‘ri hayot kechirishidan kelib chiqadi. Avvalo bolaning turmushi qanday tashkil bo‘lga nligi va birinchi navbatda bolalarning yurish-turishini rejaga solib turuvchi rejim va qoidalar to‘g‘risida gapirish kerak. Agar oilada bunday qoida bo‘lmasa yoki bo‘lsa ham kattalarning o‘zi bu qoidalarga rioya qilmasalar, agar bolalar bu qoidalarni buzganlarida ko‘pincha e’tiborsiz qoldiriladigan bo‘lsa, agar kattalar bolalardan talab qilsalar-u, ularni o‘zlari buzadigan bo‘lsalar, u taqdirda bunday oilada bolalarning belgilangan qoidalarga rioya qilmasliklariga nojo‘ya qilmish deb baho berib bo‘lmaydi.

To‘liqsiz oilalarda ota-onalarning bolalarining **nojo‘ya qilmishlaridan** xafa bo‘lgan chog‘lari ko‘p bo‘ladi. Ular bolalarini ayblari uchun jazolaydilar, ba’zan ularni o‘yin-tomoshadan yoki bolalarga huzur beradigan boshqa narsalardan mahrum qiladilar, ammo odatda berilgan jazolar bolalarning yurish-turishini deyarlik o‘zgartirmaydi. Aksincha, bola qanchalik ko‘p jazo tortsa, uning **nojo‘ya qilmishlari** ortaveradi.

Ota-onalar nima uchun bolalarga jazo beradilar, bolalarning nojo‘ya qilmishlari uchun hamma vaqt jazo berish shartmi?

Kattalar bolalarga hamma vaqt to‘g‘ri ta’sir qiladi deb bo‘lmaydi. Buni isbot qilish uchun bolalarning ko‘pchiligida uchraydigan nojo‘ya qilmishlarni misol qilib olish kifoya.

Kattalarning bolalarga tarbiyaviy ta’siri ularning xarakteridagi yaxshi tomonlarni o‘stirib, mustahkamlab borishga, yomon tomonlarini esa yo‘qotishga qaratiladi. Biroq bu maqsadga erishish uchun bolalarning nojo‘ya qilmishiga nima sabab bo‘lganini aniqlash kerak; bola bu narsani atayin qiliptimi, yoki yo‘qmi. Unga albatta jazo berish yo‘li bilan ta’sir etish zarurmi buni bilib olish lozim.

Har bir **nojo‘ya qilmishning ikki tomoni bo‘ladi**. Buning birini shartli ravishda, ichki tomon deb atash mumkinki, bu – nojo‘ya ish, harakatlarni keltirib chiqaradigan niyat va maqsadlardir, ikkinchisi tashqi tomon bo‘lib, bu – harakatning o‘zidir.

Ma’lumki, **nojo‘ya qilmishlar** bir-biriga o‘xshasa ham, sabablar har xil bo‘lishi mumkin va aksincha, sabab va maqsadlar bir biriga o‘xshasa ham har xil harakatni keltirib chiqarishi mumkin.

Kattalar ko‘pincha bola qilgan **nojo‘ya ishning** sababini aniq bilib olish uchun harakat qilmay, belgilangan talablarni buzganligi uchun jazo berish bilan kifoyalanadilar. Bu yolg‘iz onalar yoki otalarda ko‘proq uchraydi. Holbuki, katta kishining bolaga, xoh jazo berish yo‘li bilan, xoh silab-siypab, ko‘nglini ko‘tarish yo‘li bilan bo‘lsin, ta’sir ko‘rsatishdan maqsadi bolaning xulqini o‘zgartirishdir, ya’ni boshqacha bilib aytganda, uning yurish-turishlarini kattalarning talablariga shunchalik bo‘ysundiribgina qolmay, balki uning qarashlarini, qiziqishlarini, orzularini o‘zgartirish, unda kelajakdagi qilmishlarini belgilab beradigan e’tiqodni yaratish va o‘stirishdir.

Xullas, to‘liqsiz oilada yoshlarning milliy-ma’naviy tarbiyasiga individual yondashuv tamoyilini amalga oshirishda quyidagi natijalarga erishiladi:

- Agarda to‘liqsiz oilada ota-ona turli yoshdagi farzandlariga uning farzand ekanligini nazarda tutmay, katta kishidan talab qilinganday undan talab qiladigan bo‘lsalar, o‘zlarining ulug‘liklaridan foydalanib, bolani izza qilsalar, uning kishilik hissi va fazilatlarini erga ursalar, farzandda dag‘allik, odobsizlik va toshbag‘irlik sifatlari rivojlanishiga sharoit yaratiladi.
- Kattalarning bolalarni hadeb koyishi, ba’zi hollarda ularga har qanday maza-bemaza nomlar qo‘yishi yomon ta’sir qiladi. Bu jihatdan bolalarni “yalqov”, “dangasa”, “qo‘rs”, “anqov”, “axmoq” kabi nomlarga ham, shuningdek, “dono”, “talantli”, “farosatli”, “ajoyib” va shunga o‘xshash maqtovli sifatlarga ham o‘rgatib qo‘yish maqsadga muvofiq emas.
- Farzandning yoshi ulg‘aya borgani sari o‘rtoqlarining, tanishlarining unga munosabati, bergan bahosi uning ma’naviy qiyofasiga va demak, axloqiga kuchli ta’sir qiladi va bu sifatlarning u uchun ahamiyati orta boradi. Chunki farzand o‘zini qaysi jamoaning a’zosiman deb his qilsa, shu jamoaning axloq qoidalarini o‘ziga singdira boradi.
- Har bir oilada farzandda ijtimoiy shaxs hissini va oilaga, jamoaga muhabbat hissini tarbiyalash g‘oyat muhimdir. Buning uchun har bir farzandda kechagidan ko‘ra bugun yaxshiroq bo‘lishga intilish tuyg‘usini uyg‘otish, bu tuyg‘uni qo‘llab-quvvatlash g‘oyat muhimdir; farzandning mehnat qilishi, zo‘r berib ishlashi va o‘zini tuta bilishi orqasida erishgan muvaffaqiyati uchun iftixor hissini kuchaytirish kerak va farzand shu tariqa yuqoriga qarab o‘sib borgan taqdirdagina ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan katta istiqbolga erishish mumkin ekanligini hamisha uqtirib turish kerak.

Demak, to‘liqsiz oilalardagi o‘g‘il va qizlar orasida tarbiyasidagi salbiy jihatlarini ifodalanishi orasida etarli farq bo‘lib, ularning bir qismi yosh xususiyati, qolgan qismi to‘liqsiz oilaning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari bilan belgilangan. Shu bilan birga “To‘liqsiz oila farzandlarining tarbiyasidagi muammolarni aniqlovchi ijtimoiy-pedagogik test” natijalarga ko‘ra genderga xos hususiyatlar aniqlangan. Bularga yolg‘onni ko‘p ishlatish odati, do‘stlarini do‘stlariga rashk qilish, arzimas narsaga xafa bo‘lish, nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, kek saqlash kabilar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni.

3. Narbaeva, T., Musurmanova, A., & Ismailova, Z. (2023). Priority areas of spiritual, moral and physical education of youth in the family. Science and innovation, 2(B1), 49-59.

4. Мусурмонов, Р., & Мусурмонова, М. (2020). Таълимда инновацион фаолият давр талаби. Science and Education, 1(Special Issue 4), 223-231.

5. Aynisa, M. (2018). Improvement of the pedagogical mechanisms of the family and educational institutions in the development of the spiritual culture of adolescents of social and legal risk groups. Проблемы педагогики, (1 (33)), 5-7.

6. Мусурманова, Ш. И. (2023). МАҲАЛЛА ФУҚАРО ЙИҒИНИ ТИЗИМИДАГИ МУТАСАДДИЛАРНИНГ НОТЎЛИҚ ОИЛА БИЛАН ФАРЗАНД ТАРБИЯСИДАГИ ЎЗАРО ҲАМКОРЛИГИ.

7. NON-FAMILIES, C. I. НОТЎЛИҚ ОИЛАЛАРДАГИ ЗИДДИЯТЛАР ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМЛАРИ.

8. Ilkhomovna, M. S. (2023). ISSUES IN THE DEVELOPMENT OF SOCIO-INTELLECTUAL COMPETENCE OF ADULT STUDENT-YOUTH IN INCOMPLETE FAMILIES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS.

9. Ilhomovna, M. S. (2022). SIGNIFICANCE AND ROLE OF PEDAGOGICAL CREATIVITY.

10. Мусурмонова, Ш. И. (2021). БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИ-ЛАРИНИНГ ЭКОЛОГИК ХАВФСИЗЛИК ТУШУНЧАЛАРИНИ ШАКЛ-ЛАНТИРИШ. Студенческий вестник, (24-5), 81-83.